

MIGRATSIYANING OILADIGI AXLOQIY MUHITGA TA'SIRI



Mirzayeva Shahrizoda Shuhratjon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: Hozirgi davrda migratsiya, ya'ni aholini bir huddudan boshqasiga ko'chishi, global jarayon sifatida insonlar hayotida muhim o'rin tutmoqda. Ushbu maqolada, migratsiyaning oilaga ta'siri, uning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: migratsiya, mehnat migratsiyasi, nikoh migratsiyasi, glaballashuv tendensiyalari, postindustrial jamiyat, tadqiqotlar, salbiy ta'sirlar.

Aholi migratsiyasi (lotincha migratio ko'chib o'tish), shuningdek, chetga chiqish, odamlarni bir mintaqadan (davlatdan) boshqasiga ko'chishi¹. Odatda, migratsiy insonlar yashash va mehnat qilish joyini o'zgartirganda ro'y beradi va u ichki yoki xalqaro bo'lishi mumkin. Ichki migratsiya bir mamlakat ichidagi ko'chishlarni anglatadi (masalan, qishloqdan shaharga), xalqaro migratsiya esa bir mamlakatdan boshqasiga o'tishni anglatadi. Hozirgi kundagi global dunyoda u juda muhim ro'l o'ynamoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev migratsiya haqida: "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va ba'zi mintaqalarda yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga sabab bo'lmoqda",² deb ta'kidlagan. Migratsiyaning oiladagi munosabatlarga axloqiy ta'siri haqida dotsent Sardor Alimov ko'plab fikrlarni bildirgan. Jumladan, "Oila a'zolarining bir joyda yashamasligi ham oiladagi axloqiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, migrantlarning ijtimoiy axloqiy qiyofasi ham o'zgarib bormoqda. Ba'zida ular "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siriga tushib, individualizm, kosmopolitizm, nigilizm kabi zararli illatlarning tashuvchisi bo'lib qolmoqda"³.

O'zbekistonda migratsiyaning asosiy omili mamlakatimizda ish o'rnining yo'qligi emas, aksincha, maqbul turmush darajasini ta'minlash uchun yetarli bo'lmagan daromad darajasining pastligidir.⁴ Hozirgi kunda, insonlar o'z xohishlarini qondirish uchun ko'proq daromad topish maqsadida qo'shni davlatlarga ishlash uchun ketishmoqda. Bu esa, migratsiyaning oiladagi axloqiy munosabatiga ta'siri doirasida dolzarb mavzularni keltirib chiqaradi. Chunki, bu mavzu oilaviy munosabatlar, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar, bolalarning tarbiyalanishi, rivojlanishi va insonlarning jismoniy hamda ruhiy holatiga ta'sir qiladi. Hatto, bu holatda oila boshliqlari o'z ayollari bilan ketishi kuzatilmoqda. Ular tomonidan farzandlari bobo va buvilarga qoldirib ketilishi, farzand tarbiyasida ota-onaning o'rmini yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Ota-onalarning "farzandim yoshligida ularning kelajagi uchun yetarli mablag' to'plab olayin", deb fikirlashlari bolalarning ruhiyatida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Migratsiyaning ijobiy jihatlardan biri ta'lim va tajriba orttirishdir. Chet davlatga ko'chgan oila u yerning madaniyati va tilini o'rganadi. Farzandlari esa, xorijiy o'quv yurtlarining bilim berish texnikasi bilan tanishadilar. Bu esa, ularning kelajagi uchun manfaatli bo'ladi. Shu bilan birgalikdan uning salbiy jihatlari ham mavjud. Yangi hududga ko'chgan oilalar o'z madaniyatini saqlab qolish va yangi madaniyatga moslashish davomidi ziddiyatli holatlarga duch kelish ehtimoli mavjud. Jumladan, U xoh o'zlari bilan xoh o'smir farzandlari bilan bo'g'liq bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlar oilaviy aloqalarning susayishi va ishonchsizlikka olib keladi.

Bundan tashqari, migrantlar ko'pincha tadbirkorlik bilan shug'ullanadilar, ish o'rinlarini yaratadigan va innovatsiyalarni rivojlantiradigan o'z bizneslarini tashkil qiladilar. Ular mahalliy

¹ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Миграция_населения

² Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarimiz. T.: "O'ZBEKISTON" NMIU-2017.-45 bet.3.

³ Mirzo ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Etika va Estetika kafedras. Etika va Estetikaning dolzarb masalalari davriy to'plam N_4. "Ilm Ziyo Zakovat". Toshkent-2019

⁴ <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2941/file/Effects-of-migration-on-children-of-Uzbekistan-Russian>.

biznes landshaftini boyitadigan yangi g'oyalar va yondashuvlarni olib kelishlari mumkin. Ularning soliq tushumlariga qo'shgan hissasi ham bir xil darajada muhimdir, bu mamlakat byudjetiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Migratsiya xalqaro munosabatlarni yaxshilashga ham hissa qo'shishi mumkin. Migrantlar ko'pincha o'zlarining kelib chiqishi va yashash joylari o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qilishadi, bu esa madaniy va iqtisodiy almashinuvni osonlashtiradi. Bunday aloqalar diplomatik va savdo aloqalarini kuchaytirishi, shuningdek, turli xalqlar o'rtasida chuqurroq tushunish va hurmatga hissa qo'shishi mumkin. Migrantlarning demografik rivojlanishga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlash kerak. Tug'ilishning pastligi va aholining qarishi bilan bog'liq ko'plab rivojlangan mamlakatlarda muhojirlar ishchi kuchini qo'llab-quvvatlash va uzoq muddatli demografik muvozanatni ta'minlash orqali ushbu tendentsiyalarni qoplashga yordam beradi. Umuman olganda, migratsiya jamiyat uchun juda ko'p ijobiy jihatlarga ega bo'lgan murakkab jarayondir. Iqtisodiy rivojlanish, madaniy boyitish, ijtimoiy integratsiya va xalqaro hamkorlik migratsiyaning zamonaviy jamiyatlarga ijobiy ta'sirining ajralmas qismidir. Ushbu jihatlarni tushunish va tan olish samarali va insonparvar migratsiya siyosatini yaratish uchun muhimdir.¹

Ammo, Migratsiya murakkab jarayon bo'lib, oilaga qaratilgan turli ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Migratsiya sabab, iqtisodiy imkoniyatlar kengligi va tajriba orttirish imkoniyatlari qanchalik muhim bo'lmasin, uning oilaviy aloqlar va madaniy nomuvofiqliklarni olib kelishi ham shunchalik ahamiyatli. Bu mavzuda chuqurroq tahlil etilishi mumkin bo'lgan masalalar va kelgusida migratsiya jarayoni bilan bog'liq muammolarni kamaytirish uchun qator chora-tadbirlarni yoritish zarur. Shu bilan birgalikda, migratsiyaning umumiy jamiyat rivojlanishiga qo'shgan hissasini inkor etib bo'lmaydi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, migratsiya hozirgi kundan o'sishda to'xtamayotgan mavzu hisoblanadi. Migrantlar faqatgina moddiy mablag'ni ko'zlab chet davlatga ketishdan oldin o'zlari va yaqinlariga ham maqul bo'ladigan qarorni qabul qilishlari kerak. Chunki, yuqorida qiyoslab o'tgan muommolardan tashqari ko'p hollarda oilalarning ajralib ketishiga ham sababchi bo'ladi. Sharqona madaniyatimizda esa "Oila -muqaddas" deb o'rganganmiz.

Ushbu muommoni ilgari surish orqali migratsiya jarayonining oiladagi axloqiy munosabatlarga ta'siri va ma'naviy tarbiyada qanchalik jiddiy ekanligini tahlil qilish natijasida mavzu yoritib o'tiladi.

Adabiyotlar:

1. https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Миграция_населения
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib , yangi bosqichga ko'tarimiz. T.: "O'ZBEKISTON" NMIU-2017.-45 bet..
3. Mirzo ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Etika va Estetika kafedrası. Etika va Estetikaning dolzarb masalalari davriy to'plam N_4. "Ilm Ziyozakovat". Toshkent-2019
4. <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2941/file/Effects-of-migration-on-children-of-Uzbekistan-Russian>.
5. <https://na-journal.ru/1-2024-sociologiya/8769-vliyanie-migracii-na-obshchestvo>

¹ <https://na-journal.ru/1-2024-sociologiya/8769-vliyanie-migracii-na-obshchestvo>